

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KAYUMOVA MEXRIBONU SHERALIYEVNA

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KORPORATIV
MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Sontenus of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) he was a
pedagogical sciences**

Kayumova Mexribonu Sheraliyevna

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni shakllantirish metodikasi (iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)..... 3

Каюмова Мехрибону Шералиевна

Методика формирования корпоративной культуры у студентов высших образовательных учреждений (на примере направления образования экономика)..... 25

Kayumova Mekhribonu Sheralievna

Methodology for the formation of corporate culture among students of higher educational institutions (on the example of the educational areas of economics)..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KAYUMOVA MEXRIBONU SHERALIYEVNA

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KORPORATIV
MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3566-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Himmataliyev Do'stnazar Omonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Mamanazarov Abduhakim Bozorovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa fanlari (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy tendensiyalarini belgilashda yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj sezilganligini inobatga olgan holda, oliy ta'lim muassasalari talabalarining korporativ madaniyatini professionallik, ijodkorlik, qadriyatlarga moslashish va ijodiy texnologiyalarini tatbiq eta olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2021-yilda "Times Higher Education Impact Rankings ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 96 mamlakatdagi 70 %dan ortiq ta'lim muassasalari o'z ta'lim dasturlarida korporativ madaniyat elementlarini qamrab olgan holda talabalarni korporativ muhitga tayyorlash muhimligini anglashning ortib borayotganligi aks ettirilgan"¹. Ishlab chiqarish sohalarida mutaxassislarning boshqaruvga xos xususiyatlarini shakllantirish, bu esa, oliy ta'lim muassasasining ajralmas elementi sifatida moslashuvchanligini ta'minlash, muassasada umumiy, axloqiy va psixologik xususiyatni shakllantirish borasida talabalarning korporativ madaniyatini takomillashtirish, mehnat bozori talabiga mos, salohiyatli tendensiyalarni hal etishga ijodiy yondasha oladigan, biznes munosabatlarini samarali yuritish bo'yicha loyihalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ishchi kuchi bozorida korporativ madaniyatni rivojlantirish iqtisodiy sharoitlarga moslashish, iqtisodiy-ijtimoiy sohalar hamda milliy madaniyatni uyg'unlashtirish, bo'lajak mutaxassislarning salohiyatini ro'yobga chiqarish, biznes etikasini omma ichida subyektiv idrok etish bo'yicha ustuvor ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shaxs taraqqiy fenomeni sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tarkibida biznes yuritish faoliyatini shakllantirish, korporativ harakat qadriyatlarini rivojlantirish, ish yuritish fazilatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarni takomillashtirish kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini jahon ta'lim standartlari darajasida rivojlantirish bilan bir qatorda talabalarning korporativ madaniyatini rivojlantirish ko'nikmalarini uzluksiz amalga oshirish, zaruriy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi loyihalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari kabi keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "... madaniyatning ustuvorligiga urg'u berish, jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasini ta'minlash, unda fuqarolarning hamjihat bo'lishiga erishish, ma'naviyatli, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni shakllantirish oldimizda turgan eng dolzarb masalalardan biri"² ekanligi ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda talabalar korporativ madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy korporatsiya hamda biznes etikani ijtimoiy-moddiy muhitda subyektiv idrok etish, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga taalluqli harakatchanlik darajasi bilan belgilanadigan qarorlar qabul qilish istagini muayyan kasbiy vaziyatlarda qo'llash, korporativ ishbilarmonlik fazilatlarini reputativ birlashtirish, xizmatlarni boshqarishda ishonchli o'zaro ta'sir qilish qobiliyatini rag'batlantirishga qaratilgan gibrid o'qitishni joriy etish kabi

¹ <https://www.timeshighereducation.com/rankings/impact/overall/2021>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020 yildagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4829149>

muammolarni hal etishga yo'naltirilgan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ - 2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-415-son "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-sonli "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, madaniy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyo xalqlarining Sharq uyg'onish davri madaniyati, milliy qadriyatlari va mutafakkirlarning ilmiy merosi, tarbiyaviy ahamiyati, talaba-yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga ijtimoiy-pedagogik, antropologik va akmeologik yondashuvlar B.Adizov, S.Annamuratova, J.Yo'ldoshev, O.Jamoliddinova, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Ortiqov, Z.Saliyeva, S.Fayzulina, Sh.Shodmonova, N.Egamberdiyeva, N.Erkaboyeva, M.Quronov, J.Hasanboyevlar; muammoning psixologik jihatlarini M.Davletshin, V.Karimova, Z.Nishonova, N.Safayev, E.G.G'oziyevlar³ning ishlarida yoritilgan.

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida tayyorlangan. Adizov B.R. Boshlang'ish ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari, dis. ... red. fanlari nomzodi, 2003; Annamuratova S.K., Художественно-эстетическое воспитание школьников Узбекистана, под ред. С.Р. Раджабова; Ташк. гос. пед. ин-т им. Низами; Yo'ldoshev J.G., Ta'lim yangilanish yo'lida, Toshkent: O'qituvchi, 2000; Maxkamov U. Axloq-odob saboqlari, qo'llanma., Toshkent: Fan; Musurmonova O. Yuqori bosqich talabalarini ma'naviy madaniyatini takomillashtirishning pedagogik asoslari: ped.fan.dok. ... diss. - T.: Nishonova S. Ezgulik yo'li, qo'llanma, Toshkent: Ma'naviyat; Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talaba shaxsini axloqiy shakllantirish, dis. ... ped. fanlari nomzodi, 2000; Saliyeva Z.T pedagogika fanlari doktorlik dis. avtoreferati. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, 2017; Shodmonova Sh., Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, Monografiya. Toshkent : Fan va texnologiya, 2008; Egamberdiyeva N.M. Atrof-muhit ta'sirida talabalarni axloqiy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari (pedagogika kollejlari misolida), Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan Dissertatsiya, T.: TDPU, 2004; Erkaboyeva N.Sh. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi (1992-2005 yy): Ped. fan ... Dis., 2007; Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma, Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002; Nishonova Z. Inklyuziv ta'lim yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishni uzluksiz amalga oshirish, 2016; Safayev N.S. Umumiy psixologiya nazariyasi

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)dan ta'lim muassasasi korporativ madaniyati xususiyatlarining nazariy va pedagogik asoslari Yu.Agaeva, O.Gabdulxakova, O.Gorbatko, V.Peshkova, N.Plaksina, A.Pozdnyakov, E.Razumova, I.Shamov, E.Chijikova⁴lar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlardan I.Ansoff, C.Cameron, K.Quinn, A.Kennedi⁵lar korporativ madaniyat modellarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-049-raqamli "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2021-yy.).

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasasida talabalarining korporativ madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

oliy ta'lim muassasasida talabalarining korporativ madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasasida talabalarining korporativ madaniyatini shakllantirish modelini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasasida talabalarining korporativ madaniyatini shakllanganlik samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarining korporativ madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni hisoblanib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Guliston davlat universiteti va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutlarini "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishlarining 675 nafar talabalarini respondentlar sifatida ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni shakllantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

va amaliyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDPU, 2013; G'oziyev E.G. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent: Noshir, 2014.

⁴ Agaeva Yu.A., Torохтий В.С. Методика формирования корпоративно-профессиональной культуры будущего социального педагога в вузе. - М.: МПГУ, 2013. - 56 с.; Габдулхакова О.И. Педагогические условия формирования корпоративной культуры студенческой группы вуза: Дис. ... канд. пед. наук. - Ульяновск, 2006. - 256с.; Горбатко О.И. Теоретико-педагогические основания особенностей корпоративной культуры образовательного учреждения: Дис. ... канд. пед. наук. - Ставропол, 2006.; Поздняков А.Л. Формирование управленческой культуры будущего специалиста социальной работы в вузе: Дис. ...док. пед. наук. - М., 2007 -439с.; Разумова Е.Д. Формирование основ корпоративной культуры будущих менеджеров в процессе профессиональной подготовки в вузе: дис. ... канд. пед. наук. - М., 2008. - 205с; Чижикова Е.С. Формирование корпоративной культуры студенческого сообщества вуза: Дис. ... канд. пед. наук. - М., 2010. - 230с.

⁵ Камерон Ким С. Диагностика и изменение организационной культуры/ Ким С. Камерон, Роберт Э. Куинн. - Питер, 2001. - 310с.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda suhbat, kuzatish, anketa, test, onlayn so‘rovnoma, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning korporativ madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari shaxsiy qadriyatlarga moslashgan fazilatlar, milliy madaniyatning ma’naviy-axloqiy an’analariga ratsional va hissiy komponentlarni birlashtirgan zamonaviy korporatsiya hamda biznes etikani ijtimoiy-moddiy muhitda subyektiv idrok etish asosida ochib berilgan;

talabalarning korporativ madaniyatini oila, nazorat, kreativ va ishlab chiqarish madaniyat turlarini uzviy uyg‘unlashtirish hamda korporativ-pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga taalluqli harakatchanlik darajasi bilan belgilanadigan qarorlar qabul qilish istagini muayyan kasbiy vaziyatlarda qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish modeli umumiy maqsadga erishishga qaratilgan ijtimoiy mas’uliyatni korporativ tajribalarga mos faollashtirish va talabalarni korporativ faoliyatga jalb etish sharoitlari va korporativ ishbilarmonlik fazilatlarini reputativ birlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bozor iqtisodiyoti sharoitida bo‘lajak mutaxassisning korporativ madaniyati darajasini baholash metodikasi ma’naviy boyluk va bag‘rikenglik komponentlarini bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish, xizmatlarni boshqarishda ishonchli o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan gibril o‘qitishga joriy etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichi o‘quv dasturlariga muvofiq “Ta’lim va o‘rganish nazariyasi” fanidan o‘quv qo‘llanma va darslik tayyorlangan;

oliy ta’lim muassasalari (kredit-modul bo‘yicha) bakalavr bosqichi o‘quv dasturiga muvofiq “Bilimlar iqtisodiyoti” nomli darslik va “Korporativ madaniyat” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlangan;

oliy ta’lim muassasasi tadqiqotchilari va mustaqil izlanuvchilari uchun ilmiy matnlarni umumlashtirish, ilmiy maqolalardan kalit so‘zlarni olish va ilmiy terminlarning bulutini yaratish orqali ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish metodikasi dasturi va “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” kunduzgi va masofaviy ta’lim yo‘nalishlari o‘quv dasturiga muvofiq “Biznes kommunikatsiya” nomli mobil ilova yaratilgan va o‘quv qo‘llanma tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi korporativ madaniyatning mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari, uni baholash mezonlari, korporativ madaniyat shakllanganligi, korporativ madaniyat darajalari hamda nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, tizimli didaktik ta’minoti, natijalarning matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi hamda olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida korporativ

madaniyatni shakllantirish mazmuni, asosiy tushunchalari, mezonlari, ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligi, oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi, korporativ madaniyatni rivojlantirishning usul va vositalari yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, oliy ta'lim muassasasi talabalarida korporativ madaniyatini rivojlantirish modelining samarali ishlashiga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va sinovdan o'tkazish; magistratura mutaxassisligida o'qitiladigan "Ta'lim va o'rganish nazariyasi" fanidan o'quv qo'llanma va darslik, bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan "Korporativ madaniyat" fanidan o'quv qo'llanma, "Bilimlar iqtisodiyoti" fanidan darslik, "Biznes kommunikatsiya" fanidan mobil ilova, tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun ilmiy matnlarni umumlashtirish, ilmiy maqolalardan kalit so'zlarni olish va ilmiy terminlarning bulutini yaratish orqali ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish metodikasi dasturlari ishning mazmunini takomillashtirishda, ta'lim jarayonida korporativ madaniyatni samarali tashkil etish uchun taklif etilgan ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan dasturiy-metodik mahsulotlardan foydalanilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni shakllantirish metodikasiga doir tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining korporativ madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari shaxsiy qadriyatlarga moslashgan fazilatlar, milliy madaniyatning ma'naviy-axloqiy an'alariga ratsional va hissiy komponentlarni birlashtirgan zamonaviy korporatsiya hamda biznes etikani ijtimoiy-moddiy muhitda subyektiv idrok etishga oid ma'lumotlar "5A111001 - Kasb ta'limi nazariyasi va metodikasi (iqtisodiyot)", "70112401 - Professional ta'lim nazariyasi va metodikasi" magistratura mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan "Ta'lim va o'rganish nazariyasi" fanidan o'quv qo'llanma va darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug'i, 2022-yil 12-iyuldagi 233-son buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 02/01-01-87-son, 2-iyun 2023-yildagi ma'lumotnomasi) mazmuniga singdirilgan. Natijada, talabalarni korporativ madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari biznes etikani ijtimoiy-moddiy muhitda subyektiv idrok etish asosida ochib berilgan;

talabalarining korporativ madaniyatini oila, nazorat, kreativ va ishlab chiqarish madaniyat turlarini uzviy uyg'unlashtirish hamda korporativ-pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga taalluqli harakatchanlik darajasi bilan belgilanadigan qarorlar qabul qilish istagini muayyan kasbiy vaziyatlarda qo'llashga oid takliflarlar "60112400 - Professional ta'lim (60310100 - Iqtisodiyot)", "60112400 - Professional ta'lim (60411200 - Menejment)", "5111000 - Kasb ta'limi (iqtisodiyot)", "5330200 - Informatika va axborot texnologiyalari (iqtisodiyot)", "5232600 - Biznes informatika", "5231400 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", "5232200 - Ekonometrika" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Bilimlar iqtisodiyoti" nomli darslik

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 12-iyuldagi 233-son buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 02/01-01-87-son, 2-iyun 2023-yildagi ma‘lumotnomasi) mazmuniga singdirilgan. Natijada, oliy ta‘lim muassasasida talabalar korporativ madaniyatini rivojlantirish modelining ishlab chiqarish madaniyat turlarini uzviy uyg‘unlashtirish hamda qarorlar qabul qilish istagini muayyan kasbiy vaziyatlarda qo‘llash asosida takomillashtirish kengaytirilgan;

talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish modeli umumiy maqsadga erishishga qaratilgan ijtimoiy mas‘uliyatni korporativ tajribalarga mos faollashtirish va talabalarni korporativ faoliyatga jalb etish sharoitlari va korporativ ishbilarmonlik fazilatlarini reputativ birlashtirishga oid tavsiyalar 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Biznes kommunikatsiya” fanidan o‘quv qo‘llanma (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2023-yil 14-iyuldagi 228-son buyrug‘i) yaratishda foydalanilgan. Natijada, o‘quv qo‘llanmadan foydalanish jarayonida talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish modeli umumiy maqsadga erishishga qaratilgan korporativ ishbilarmonlik fazilatlarini reputativ birlashtirishga erishilgan;

bozor iqtisodiyoti sharoitida bo‘lajak mutaxassisning korporativ madaniyati darajasini baholash metodikasi ma‘naviy boylik va bag‘rikenglik komponentlarini bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish, xizmatlarni boshqarishda ishonchli o‘zaro ta‘sir qilish qobiliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan gibrid o‘qitishga joriy etish taklifiga oid uslubiy ma‘lumotlar “5231900 - Korporativ boshqaruv” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Korporativ madaniyat” nomli o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligining 02/01-01-87-sonli 2023-yil 2-iyundagi ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘quv qo‘llanmada keltirilgan ma‘lumotlardan talabalarning ta‘lim jarayonida korporativ madaniyatni ma‘naviy boylik, bag‘rikenglik komponentlari xizmatlarni boshqarishda ishonchli o‘zaro ta‘sir qilish qobiliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan gibrid o‘qitishga joriy etishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 tadan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan, ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oliy ta‘lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda bo‘lajak iqtisodchilarning korporativ madaniyatini shakllantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilgan, oliy ta‘lim muassasalarida talabalar korporativ madaniyatini shakllantirishning iqtisodiy-pedagogik omillari ko‘rib chiqilgan, oliy ta‘lim muassasasi talabalar korporativ madaniyatining mazmuni kabilar bayon qilingan.

O‘tgan asrda menejment nazariyasi va amaliyotida korporativ madaniyat fenomenini boshqaruv omili va tashkilot faoliyati samaradorligini tushuntirish tamoyili sifatida ko‘rib chiqadigan madaniyatshunoslik yondashuvi shakllangan. Ushbu yondashuvni shakllantirishning boshida ishlab chiqarish korxonalarining korporativ madaniyatini o‘rganishga ustuvor e‘tibor berildi. So‘nggi paytlarda ushbu hodisa har xil turdagi tashkilotlarning, shu jumladan, ta‘lim muassasalarining faoliyati uchun tushuntirish tamoyili sifatida qo‘llanila boshlandi, bu korporativ madaniyat bo‘yicha tadqiqotlarni pedagogika kontekstida eng istiqbolli, deb belgilaydi.

Zamonaviy oliy ta‘lim muassasasining korporativ madaniyati mazmunini tahlil qilish uchun maxsus tadqiqotni talab qiladigan zarur va o‘ta muhim ma‘lumotlar – bu o‘quv jarayonining asosiy subyektlari (talabalar va o‘qituvchilar) g‘oyalari xususiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisoblanadi. O‘qituvchilar va talabalar jamoasi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish, ularning o‘quv jarayonidagi sheriklari haqiqiy korporativ madaniyatning tabiatini qanday baholashlari va ideal variantning tasvirini chizishlari muhim ahamiyatga ega. Aynan shu narsa hal qiluvchi darajada tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Talabalarning korporativ madaniyati mahalliy talabalar jamiyatining qadriyatlari, me‘yorlari va an‘analarining tashuvchisi sifatida bo‘lajak mutaxassisning shakllanishi va shaxsiy rivojlanishi omili sifatida muhimligi shaxslararo va guruhlararo o‘zaro munosabatlarda, muloqotda, imidjda va xulq-atvorda ma‘lum bir uslubga rioya qilish bilan bog‘liq. Talabalarning korporativ madaniyati har qanday oliy ta‘lim muassasasining strategik vazifasini hal etishning asosiy vositasi bo‘lib, hayotning zamonaviy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan, bilim darajasi mehnat bozori talablariga yangi ta‘lim standartlariga javob berishi kerak bo‘lgan yuqori malakali bitiruvchini tayyorlashdir.

Talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish muammosi zamonaviy mehnat bozoriga xos bo‘lgan tendensiyalar (yuqori raqobat, ishsizlik,

bitiruvchining moslashuvchan fazilatlariga qo'yiladigan maxsus talablar, talab qilinadigan vazifalarning murakkabligi) ularni hal qilishga ijodiy yondashish, zamon talabiga javob bermaydigan kasblarning bekor bo'lishi va doimiy ravishda yangilarining paydo bo'lishi sharoitida alohida dolzarblik kasb etadi. Ta'lim xizmatlarining ko'lami va sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan mehnat bozori bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga yangi talablarni qo'ydi, ular orasida bitiruvchining shaxsiy fazilatlar va umumiy madaniyatining rivojlanish darajasi muhim ahamiyatga ega.

Korporativ madaniyat – bu ta'lim motivatsiyasini rag'batlantirishning samarali vositalaridan biri, shaxsning tan olinishi, maqomi, jamoaviy ma'qullanishi va “biz” iqtisodiy-psixologik hamjamiyatini shakllantirishga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishdir. Korporativ madaniyat eng muhim qiymatga yo'naltirilgan me'yoriy funksiyalarni bajaradi, iqtisodiy va kommunikativ kasblarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar doirasini kamaytiradi, mutaxassisning o'zini o'zi anglash istiqbollari va xarakterini belgilaydi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasasi korporativ hamjamiyati doirasida iqtisodiy-gumanitar soha kasblari uchun milliy madaniyatning ma'naviy-axloqiy an'alariga imkon qadar mos keladigan qiymat-me'yoriy asosni shakllantirish zarur.

Korporativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning muhim sharti – bu kuchli madaniy va pedagogik salohiyatga ega bo'lgan ta'lim muassasasining iqtisodiy-madaniy muhiti – hayotning yagona qiymat-me'yoriy oliy ta'lim muassasasi makonini shakllantirish qobiliyati tufayli yosh talabalarning fazilatlarini shakllantirish va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi iborat.

Ta'lim muassasasi iqtisodiy-madaniy muhitining eng muhim pedagogik resursi – bu talabalarning maqsadli tashkil etilgan iqtisodiy-madaniy faoliyati bo'lib, uning ta'lim va o'zini o'zi anglash salohiyati quyidagilar bilan ta'minlanadi: biznes etikani rivojlantirish, keng ko'lamli innovatsion axborot-kommunikatsiya, iqtisodiy-ma'naviy, iqtisodiy-ma'rifiy faoliyat, madaniy texnologiyalar va shaxsning ongi va xulq-atvoriga ta'sir qilish vositalari; talabalarning bo'sh vaqtga bo'lgan ehtiyojlarini amalga oshirishda ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish; shaxslararo o'zaro munosabatlarning erkin tabiati; talabalarning bo'sh vaqtni erkin rivojlanish va o'zini namoyon qilish maydoni sifatida subyektiv idrok etishi; ta'lim jarayoniga nisbatan yosh shaxsning rivojlanishi, iqtisodiylashuvi va o'zini o'zi anglashi uchun qo'shimcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan bo'sh vaqt uchun kompensatsion imkoniyatlar; talabalarning bo'sh vaqtni erkin rivojlanish va o'zini namoyon qilish maydoni sifatida subyektiv idrok etishi; ta'lim jarayoniga nisbatan yosh shaxsning rivojlanishi, iqtisodiylashuvi va o'zgaruvchan muhit sharoitlariga madaniy moslashishdir.

Dissertatsiya tadqiqotining tahlili mutaxassisning korporativ madaniyatini ko'plab fanlar – falsafa (A.V.Averin, V.V.Razmanov), madaniyatshunoslik (S.V.Kuzichev, A.A.Pichugina), siyosatshunoslik (A.V.Balan), sotsiologiya (AD Zotov, EA Kapitonov, DL Ovchinnikov, GV Yashchenko), iqtisod (O.A.Saichenko, E.Yu.Mosina), psixologiya (Yu.A.Nekaeva, L.I.Shumskaya),

pedagogika (O.I.Gabdudxakova, A.L.Pozdnyakov, E.D.Razumova, E.S.Chizhikov)⁶ bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Har bir fan bo‘lajak mutaxassis korporativ madaniyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishining xususiyatlarini ko‘rib chiqadi.

Falsafaviy nuqtayi nazaridan, korporativ madaniyat va harakatlar shaxsga biznes etikaga doir munosabatlarini samarali o‘rnatishga, zamonaviy korporatsiyaning korporativ madaniyatiga moslashishga va odamlarga o‘z xatti-harakatlari uchun ko‘rsatmalar beradigan qadriyatlarni baham ko‘rishga yordam beradigan safarbar va birlashtiruvchi prinsip bo‘lib xizmat qiladi.


Falsafaga oid (A.V.Averin, V.V.Razmanov) ishlab chiqilgan dissertatsiya tadqiqotlarining tahlili mualliflarning korporativ madaniyatning mohiyatiga qarashlarini ochib berishga imkon berdi. A.V.Averin “korporativ madaniyat – bu “umumiy taqdir”, professionallik, o‘zini namoyon qilish va o‘zini rivojlantirish, ijodkorlik, “ishtirok etish” qadriyatlariga asoslangan murakkab korporativ-madaniy hodisa, deb hisoblaydi. Korporativ madaniyatning asosiy tarkibiy elementlari – “umumiy taqdir” korporativ falsafasi, korporativ missiya deklaratsiyasi, korporativ ruh, “inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasi”, ichki korporativ ma’lumotlar tizimi, kasbiy o‘ziga xoslik madaniyatida deydi.

Falsafa, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisod, pedagogika, psixologiya sohasidagi korporativ madaniyatni shakllantirish bo‘yicha mualliflarning nuqtayi nazarlarini tahlil qilish shaxsni korporativlashtirish muammolarini rivojlantirish va hal qilish uchun jamiyatning potensial imkoniyatlarini amalga oshirish uchun shaxs va jamiyatning o‘zaro ta’siriga qaratilgan korporativ-pedagogik yondashuv konteksti talabaning korporativ madaniyatini ko‘rib chiqishga imkon berdi. Korporativ-pedagogik yondashuvga muvofiq, talabaning korporativ madaniyatini shakllantirishning yuqori darajasi

⁶ Аверин А.В. Корпоративная культура современного общества: Дис. канд. филос. наук. - Ставрополь, 2006. - 195с.; Разманов В. В. Корпоративная культура постиндустриального типа: социально-философский анализ: дис. ... канд.филос. наук. – Т., 2009. - 123с.; Кузичев С.В. Корпоративная культура как социокультурный феномен: Дис. ... канд. культурологии. -М., 2004. - 150с. Пичугина Л.А. Российская корпоративная культура: генезис и исторические трансформации: Дис. ... культурологии. - М., 2008. - 200с.; Балан А.Б. Корпоративная модель взаимодействия государства и гражданского общества: Теория и практика: Дис. ... канд. полит. наук. -Екатеринбург, 2001. - 170с.; Зотов А.Д. Корпоративная культура как фактор формирования и развития кадрового потенциала предприятия: Дис. ... кандидат социол. наук. - Пенза, 2006. – 145 с.; Капитонов Э.А. Корпоративная культура: стратегическое направление развития социально-трудовых отношений (опыт социологического анализа): Дис. ... д-ра социол. наук. - Ростов - на - Дону, 2003. - 426с. Овчинников Д.Л. Корпоративная культура в России и Японии: сравнительный анализ: Дис. ... канд. социол. наук. - М., 2006. – 133 Ященко Г.В. Корпоративная культура во внутриорганизационном социальном управлении: Дис. ... кан. соц. наук. - Ростов-на-Дону, 2007. - 137с.; Сайченко О.А. Корпоративная культура как эффективный механизм управления человеческими ресурсами предприятия: Дис. ... канд. эконом. наук. - Санкт-Петербург, 2002. - 135с.; Мосина Е.Ю. Корпоративная культура как элемент социально-трудовых отношений: Дис. ... канд. экономических наук. - М., 2005. - 233с.; Нехаева Ю.А. Социально-психологические качества личности успешных в трудоустройстве молодых специалистов: Дис. ... канд. психол. наук. - Ярославл, 2008. - 169с. Шумская Л.И. Личностно-профессиональное становление студентов в процессе вузовской социализации: Дис. ...док. психол. наук. -Минск, 2005-363с.; Габдулхакова О.И. Педагогические условия формирования корпоративной культуры студенческой группы вуза: Дис. ... канд. пед. наук. - Ульяновск, 2006. - 256с.; Поздняков А.Л. Формирование управленческой культуры будущего специалиста социальной работы в вузе: Дис. ...док. пед. наук. - М., 2007 -439с.; Разумова Е.Д. Формирование основ корпоративной культуры будущих менеджеров в процессе профессиональной подготовки в вузе: дис. ... канд. пед. наук. - М., 2008. - 205с; Чижикова Е.С. Формирование корпоративной культуры студенческого сообщества вуза: Дис. ... канд. пед. наук. - М., 2010. – 230 с.

talaba shaxsining ta'lim salohiyatini rivojlantirishni anglatadi va korporativ madaniyat namoyon bo'ladigan shaxsiy sifati tavsiflangan (1-rasm).

Talabalar korporativ madaniyatining tarkibiy qismlarini korporativ mutaxassisning tarbiyaviy salohiyatining ko'rsatkichlari sifatida rivojlantirish jamiyatning ta'lim salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "talabaning korporativ-madaniyati" tushunchasini aniqlashda qarashlar birligi yo'q. Ushbu hodisaning mohiyati va tarkibiy qismlari bo'yicha turli mualliflarning ko'plab nuqtayi nazarlari mavjud. "Korporativ madaniyat" tushunchasi tarkibidagi muhim tarkibiy qism madaniyat tushunchasi hisoblanadi. "Madaniyat" tushunchasiga ta'rif berish sohasida tadqiqotchilarning turli yondashuvlari mavjud. Buning sababi shundaki, "madaniyat" atamasi turli fanlarning o'rganish predmeti bo'lib, jamiyat hayotining turli sohalarida qo'llaniladi. "Madaniyat" tushunchasining tahlili shuni ko'rsatadiki, u shaxsning ham, butun insoniyatning ham yetakchi ma'naviy va moddiy qadriyatlarining sinonimi hisoblanadi.



1-rasm. Talabaning korporativ madaniyatini shakllantirish⁷

Talabalarni korporativ mutaxassislar jamoasiga va muayyan korporativ oliy ta'lim muassasasining korporativ madaniyatiga moslashtirish uchun ular korporativ madaniyatning barcha tarkibiy qismlariga ega bo'lishi kerak. Oliy ta'lim muassasalari talabaning korporativ madaniyatini shakllantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo'lishi hamda talabalarni kasbiy faoliyatga moslashtirishga yordam beradi:

zamonaviy jamiyatda tobora ko'payib borayotgan yangi kasblar orasida mutaxassislarning shaxsiy fazilatlarining korporativ jihatlarini dolzarblashtiradigan korporativ-pedagogik faoliyat ortib borayotgan o'rinni egallaydi;

kasbiy faoliyat rivojlanib borar ekan, uning maqsadlarini amalga oshirishda korporativ muhitning⁶ jumladan, pedagogik jamoalarning kasbiy jihatdan muhim resurslari va imkoniyatlari muhim o'rin tutadi;

kelajak korporativ mutaxassisning korporativ madaniyati ushbu kasb bo'yicha mutaxassislarning oldingi avlodlari tomonidan tayyorlangan korporativ tajriba asosida yuzaga keladi;

⁷ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

talabalarning korporativ madaniyatini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun oliy ta'lim muassasasi talabalarning shaxsiy kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun muhim bo'lgan pedagogik salohiyatini rivojlantiradi.

Mutaxassisning korporativ madaniyatini shakllantirish uchun axloqiy me'yor va qoidalarga rioya qilish, korporativ mutaxassislar jamoasining ideallariga sodiqlik; talabalarning milliy xususiyatlarini hisobga olish; oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining shaxsiy namunasi; talabalarda o'z kasbiy faoliyati va hamkasblarining jamoaviy ishi uchun mas'uliyat hissini shakllantirish, kasbiy faoliyat manfaatlari yo'lida shaxsiy maqsadlardan voz kechishga tayyorgarlik talablarini bajarish kerak. Mutaxassisning korporativ madaniyatini shakllantirish jarayonida mutaxassisni boshqa korporativ guruhlardan ajratib turadigan shaxsiy xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajriba tahlili asosida quyidagi mualliflik ta'riflarini keltiramiz: Oliy ta'lim muassasasi korporativ madaniyati – bu muassasa faoliyatining mahsuli, sifat ko'rsatkichi, muassasa a'zolarining e'tiqodlari, muassasaga xos bo'lgan qadriyatlar, ijtimoiy-moddiy muhitda o'zini va boshqalarni idrok etishini aks ettiruvchi, o'zini tutish, o'zaro munosabat, o'zini va atrofni idrok etishdir. “Talabanning korporativ madaniyati umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, insonning korporativ jozibadorlik yo'naltirilgan qadriyatlarida, ishbilarmonlik aloqalari madaniyatida, korporativ faoliyat tajribasida va korporativ munosabatlarda namoyon bo'ladigan fazilatlarini aks ettiruvchi xususiyatlar to'plamidir.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni shakllantirish texnologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari, talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish texnologiyasi, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish modeli kabilari bayon qilingan.

Ta'limning globallashuvi sharoitida, talabalar korporativ madaniyatining mohiyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirishga tarbiyaviy ta'sir ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi korporativ-pedagogik sharoitlarni bilishga bog'liq. Shunga ko'ra, talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash zarurati mavjud. Mezon va ko'rsatkichlar talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Mezon - bu belgi, uning asosida biror narsaning ta'rifi, tasnifi yoki bahosi. Ko'rsatkich - bu biror narsaning rivojlanishi to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladigan ma'lumotlar.

Talabalarning ta'lim salohiyati ko'rsatkichlari sifatida ularning korporativ madaniyatining tarkibiy qismlarini (korporativ yo'naltirilgan qadriyatlar, biznes etika madaniyati, korporativ tajriba, korporativ jozibadorlik) rivojlanish darajasini aniqlash, mezonlar asosida amalga oshiriladi: biz ushbu tarkibiy qismlarni korporativ-yo'naltirilgan, madaniy biznes, korporativ-faoliyat, korporativ-joziba kabi mezonlarga bo'ldik.

Tadqiqotda mezon tanlashga “Oliy ta'lim muassasasidagi talabanning korporativ-madaniyati” tushunchasiga ta'rif berish asosida yondashib, uni shaxsiy sifat sifatida ko'rib, yuqoridagi mezonlarga to'xtalamiz. Biz taklif qilayotgan oliy

ta'lim muassasasida talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish darajasini baholash mezonlari tizimi nazariy tahlil va eksperimental ish natijalari asosida ishlab chiqilgan. Tanlangan mezonlar va ularning ko'rsatkichlari "oliy ta'lim muassasasidagi talabalarning korporativ madaniyati" toifasining eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi va uning namoyon bo'lish xususiyatini taqdim etishga imkon beradi:

Korporativ yo'naltirilgan mezon korporativ xulq-atvor asosini tashkil etuvchi axloqiy me'yorlarni bilishda, shaxsga oliy qadriyat sifatida ijobiy munosabatda bo'lish yotadi; to'liqlik, mustaqillik, milliy madaniyatga qiziqish va boshqa madaniyat vakillariga hurmat mavjudligi; korporativ adolat tamoyillariga amal qilish istagi, o'zini o'zi tashkil qilish va to'siqlarni yengib o'tish istagi; korporatsiyadagi odamlar bilan muloqot qilish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish istagi; korporativ tajriba va shakllangan korporativ faollikning mavjudligi; dunyoqarashlarning mavjudligida bilinadi. Falsafada dunyoqarash bilim va qadriyatlar, dunyoqarash va shubhalar, an'anaviy va ijodiy tafakkur, intellekt va hissiyotlarning qarama-qarshi birligi sifatida tavsiflanadi. Talabani korporativ madaniyatining korporativ yo'naltirilgan mezonining xususiyatlari quyidagilardan iborat: kasbiy va korporativ vaziyatlarda talabalar mas'uliyatini namoyon bo'lishi, boshqa odamlarga hurmat, bag'rikenglik; ratsional va hissiy komponentlarni birlashtirgan shaxsning tizimli e'tiqodlari; talabalarning jamiyatdagi korporativ mavqei bilan bog'liq bo'lgan e'tiqodlari, bu ular olgan kasb-hunar bilan bog'liq.

Korporativ yo'naltirilgan mezon ko'rsatkichlari quyidagilardir: korporativ fazilatlarini shakllantirish: axloqiy fazilatlar, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qoidalarini o'zlashtirish, shu jumladan, shaxsning ma'naviy boyliklari; kasbiy faoliyatda keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan shaxsning ishbilarmonlik fazilatlarini reputativ birlashtirish; korporativ tajribaning mavjudligi va talabani o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilish, korporativ tajribani o'zlashtirish, unga munosib javob berish istagi; shaxsning korporativ faolligini shakllantirish; talabalarning oliy ta'lim muassasasi, jamoaning jamoat ishlarida faol ishtirok etishi, faol hayoti va fuqarolik pozitsiyasi, talabalarning o'zini o'zi boshqarishdagi ishtiroki, axloqiy qadriyatlarini, qarashlari, e'tiqodlari, bilimlarida namoyon bo'ladi.

Madaniy va biznes mezonlari talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish darajasini baholash talabani individual harakatlarini korporativ tomonidan tasdiqlangan normalar, mulohazalar, qadriyatlar, e'tiqodlar, xatti-harakatlarning barqarorligi va mustaqilligiga yo'naltirilishini, o'qituvchining korporativ pozitsiyasining mavjudligini anglatadi. Ushbu mezon talabalarning korporativ madaniyatini axloqiy jihatlarini tushunishga yordam beradi. Bu shaxsning xatti-harakatlariga asoslanadi, bu kuzatilishi mumkin bo'lgan harakatlar, boshqa odamlar, jamoalar manfaatlariga taalluqli inson harakatlaridir.

Madaniy va biznes mezonlari ko'rsatkichlari korporativ mutaxassislar jamoasida shakllangan axloqiy me'yorlar va munosabatlar qoidalarining ko'rinishlari bo'lib, unda odamlarning maqbul va nomaqbul xatti-harakatlari, adolat va adolatsizlik haqida fikrlar bildiriladi. Axloqiy me'yorlar va qoidalar subyektlar o'rtasida o'zaro ijobiy munosabatlarni nazarda tutuvchi, bir-birining halolligi va odobliligiga ishonchga asoslangan o'zaro tushunish va o'zaro ishonchga yo'naltirilgan bo'lishi kerak; talabalar odamlar o'rtasidagi o'zaro

munosabatlarning gumanistik uslubiga ega bo'lib, u shaxsiy muloqotni o'z ichiga oladi, sherikni tushunishga, hamdardlik, insonga nisbatan hamdardlik; xulq-atvor namunalarini tanlash, o'zaro tushunish, ishonch, turli kasbiy vaziyatlarda yordam berishda namoyon bo'ladi.

Korporativ va samaradorlik mezoni talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish malaka va korporativ harakatchanlikka ega darajasini baholash talabalarning asosiy korporativ-pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish, turli darajadagi mutaxassisik faoliyatini amalga oshirishning tegishli usullarini tanlash qobiliyati darajasini anglatadi.

Korporativ va samaradorlik mezoni ko'rsatkichlari quyidagilardir: kasbiy faoliyatda boshqaruv vazifalarini samarali hal qilish, muayyan korporativ muammoning mohiyatini tushunish; korporativ faoliyatda boshqaruv texnologiyalarini qo'llashga tayyorlik va qobiliyatga ega bo'lish; korporativ loyihalarni yaratish va amalga oshirish istagi; professionallik va korporativ munosabatlarning mohiyatini tushunish; bilim, ko'nikma va tajribani muayyan kasbiy vaziyatda qo'llash qobiliyati bilan tavsiflangan kompetensiyaning mavjudligi; korporativ madaniyat doirasida amaliy faoliyatda kasbiy maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat motivlarining mavjudligi, shaxsning kasbiy faoliyatda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadigan adekvat qarorlar qabul qilish qobiliyati; korporativ harakatchanlikning ifodaliligi kabilardir.

Korporativ-jozibali mezon talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish darajasini baholash talabalar jamoasining barcha a'zolariga xos bo'lgan qadriyatlar, kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan xulq-atvor normalari, g'oyalari va tushunchalari mavjudligini nazarda tutadi. Talabalar oliy ta'lim muassasasida o'qish jarayonida ijtimoiylashtirish hamda moslashishning subyektivi va obyektivi aylanadi, uning davomida u talabalar jamoasining qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini o'rganadi.

Kasbiy kompetensiya va korporativ madaniyatni rivojlantirishning yangi pedagogik modellari, ta'lim uzluksizligi, ta'lim sifatini baholash va mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, ta'limda masofaviy "Biznes kommunikatsiya" dan foydalanilmoqda, bugungi kunda raqamli ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini boshqarishni tashkil etishda an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Raqamli ta'lim ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan va ta'lim dasturlarini amalga oshirishda foydalaniladigan va axborot texnologiyalari, texnik vositalarni qayta ishlashni ta'minlaydigan o'quv faoliyatini tashkil etish, talabalar va professor-o'qituvchilarning o'zaro ta'sirini tushuniladi.

Gibrid o'qitishni joriy etish an'anaviy ta'limning shakli, ko'p asrlik mehnat shakliga (yuzma-yuz auditoriya shakli) qaraganda o'qituvchidan ko'proq kuch va vaqt talab etadi. Bunga o'qituvchining o'quv jarayonida o'z rolini o'zgartirishga psixologik tayyor emasligi ham aniq to'sqinlik qiladi. Innovatsiya sifatida gibrid ta'limni joriy etilishining reputativ birlashtirish asosida talabalar va o'qituvchilar faoliyatida bir qancha o'zgarishlarga olib keladi. Talaba erkinlik va mas'uliyat muhitini his qiladi, bu muhitda u ongli ravishda tanlashni va o'z qarorining oqibatlarini uchun javobgarlikni o'rganadi. O'qituvchi o'zi uchun yangi rollarda

harakat qila boshlaydi, xususan, ma'lumot beruvchi roldan o'qituvchi roliga o'tadi; gibril ta'lim - bu kompyuter grafikasi, video va audio, interfaol elementlar va boshqalar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan foydalanadigan elektron ta'lim elementlari bilan yuzma-yuz ta'limning an'anaviy shakllarining kombinatsiyasi hisoblanadi.


Oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni shakllantirishning asosiy texnik vositasi sifatida "Biznes kommunikatsiya" fanidan tayyorlangan mobil ilovani keltirib o'tamiz. Izlanishlarimizning amaliy natijasi sifatida "Biznes kommunikatsiya" fanidan ilm-fan va texnika-texnologiyalarning yutuqlaridan foydalangan holda mobil ilovani yaratdik. Ushbu mobil ilova katta hajmdagi ma'lumotlarni har qanday pedagog hamda talabalar tomonidan esda saqlab qolishlariga, individual xususiyatlari orqali amalga oshirishga imkon beradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish natijasida talabalarda korporativ madaniyat ko'nikmasini tarkib toptirishga erishiladi.

